

## YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA MAKTAB TALIMIDAGI MUOMMOLAR

*Toshboyev Inoyatullo Nishonboy o'g'li*

*A.Qodiriy nomli Jizzax Davlat Pedagogika universiteti 2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada fuqarolik pozisiyasini shakllantirish maqsadida ta'lif tizimida vujudga kelayotgan muommolar, ta'lif jarayoniga jalg etilganlarning ijtimoiy va moddiy ahvoli yetarli darajada qo'llab-quvvatlanmaganligi, oliy o'quv yurtiga kirishda sun'iy va mantiqsiz sinov test imtihonlarining joriy etilgani hamda o'rta ta'lif va mehnat bozori o'rtasida o'zaro muvofiqlikning yo'qligi kabi dolzarb muommolar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** fuqarolik pozisiyasi, mehnat bozori, korrupsiya, mahalliychilik, xalqaro ekspert.

### KIRISH

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, har kimga ta'lif uchun teng huquqlar kafolatlanadi.<sup>1</sup> Ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar O'zbekistonni ta'lif darajasi ko'rsatkichlari bo'yicha dunyoning yetakchi davlatlari qatoriga olib chiqmoqda. Ta'lifni rivojlantirish uchun bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan yangi sifatli shart-sharoit yaratilib, oliy ma'lumotli, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi oliy o'quv yurtlari sonini ortib bormoqda.

Jumladan, 1991-yilda 53 ta OTM faoliyat yuritgan bo'lsa, bugungi kunda kelib ularning soni 130 taga yetdi. Shundan davlat oliy ta'lif muassasalari - 96 ta; nodavlat oliy ta'lif muassasalari – 9 ta; xorijiy OTM lar va ularning filiallari – 25 ta 1 tashkil etmoqda.

### ASOSIY QISM

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar tashkiloti sessiyasidagi nutqlarida bugun dunyo yoshlari son jihatidan insoniyat tarixidagi eng yirik avlod bo'lib, ular 2 milliard kishini tashkil etayotganligi, afsuski, ekstremistik faoliyat va zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatlarning aksariyati 30 yoshga yetmagan yoshlar tomonidan sodir etilayotgani qayd etib o'tildi. Bu qatlam vakillari bilan bog'liq masalalar nafaqat O'zbekiston, balki butun hamjamiyat oldidagi muhim muammolardan biri bo'lib turganligini ko'rsatmoqda. Hozirgi kunda butun dunyoda globallashuv, madaniyatlar aralashuvi jarayoni kechmoqda. Bu murakkab jarayon nafaqat yoshlarga, balki kattalar dunyoqarashiga ham ta'sir etyapti. Bir tomonidan,

<sup>1</sup> Ўзбекистонда ОТМ лар сони 130 тага етди // Жамият. 13 январ 2021.

axborot texnologiyalari kundalik hayotimizga shu qadar shiddat bilan kirib kelyaptiki, buni har qanday raqamlarsiz ham kuzatishimiz mumkin. Hozirgi kunda butun dunyoda globallashuv, madaniyatlar aralashuvi jarayoni kechmoqda. Bu murakkab jarayon nafaqat yoshlarga, balki kattalar dunyoqarashiga ham ta'sir etyapti.<sup>2</sup> Bir tomonidan, axborot texnologiyalari kundalik hayotimizga shu qadar shiddat bilan kirib kelyaptiki, buni har qanday raqamlarsiz ham kuzatishimiz mumkin.

Ma'lumotlarga qaraganda, bugungi kunda Internet tarmog'ida o'z joniga qasd qilishning oson yo'llarini targ'ib qiluvchi 9 ming, shahvoniy mazmundagi 4 mingdan ziyod saytlar mavjud bo'lsa, 49 foiz kompyuter o'yinlari zo'ravonlik va yovuzlikni targ'ib qiladi. Ayni vaqtda 42 foiz bolalar va o'smirlar onlayn tarzida tarqatiladigan pornografiya ta'siriga butunlay tobe bo'lib qolgan. Xalqaro ekspertlar dunyo miqyosida 38 foiz bola zo'ravonlik ruhidagi saytlarga, 26 foizi millatchilik xarakteridagi veb-sahifalarga muntazam kirishini tasdiqlashmoqda. Qayd etib o'tilgan masalalar bevosita har bir yoshning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida o'z o'rnini egallashi, fuqarolik pozisiyasini shakllantirish yo'lidagi muammolar qatorida turibdi. Fuqarolik pozisiyasini shakllantirish bevosita huquqiy savodxonlik darajasini oshirish bilan ham bog'liq. Yoshlarda kuchli fuqarolik pozisiyasini shakllantirishda, afsuski, amaliyotda quyidagi muammolar ko'zga tashlanmoqda. Tarbiya jarayoni va bunda ota-onada tomonidan yo'l qo'yilayotgan mas'uliyatsizlik. Afsuski, bugun ayrim oilalarda ota o'z bolasi uchun ideal shaxs sifatida gavdalanmay qo'ygan.<sup>3</sup>

Maktab ta'lim jarayonidagi muammolar: 9 yillik ta'lim, 12 yillik ta'lim, 11 yillik ta'lim, lotin va kirill alifbosidagi o'zaro moslashmaslik, ta'limda eksperimentlarning muttasil o'tkazilishi uzlusiz ta'limda salbiy asoratlar qoldirmoqda, avlodlar o'rtasidagi tarixiy bilimlarning o'zaro nomuvofiq holda shakllanishiga olib kelmoqda.

Shu bilan birga, ta'lim jarayoniga jalb etilganlarning ijtimoiy va moddiy ahvoli yetarli darajada qo'llab-quvvatlanmaganligi ham bu borada muhim muammolar qatorida turibdi.

Oliy o'quv yurtiga kirishda sun'iy va mantiqsiz sinov test imtihonlarining joriy etilgani, oqibatda yoshlar bilim olishga emas, test yechishga tayyorlanayotgani, shuningdek, hududlar bo'yicha sharoitlar har xil bo'lishiga qaramay, hamma uchun bir xil savollar berilishi, kvota, kirishning o'ta qiyin, bitirishning oson prinsipi amalda qo'llanilishi yoshlarda fuqarolik pozisiyasi mustahkamligini ta'minlashda to'siq bo'lmoqda. Ta'lim muassasalari va mehnat jamoalarida "Davlat tili haqida"gi Qonun talablariga yetarli darajada amal qilinmaydi.

<sup>2</sup> Кушербаев Р. Ёшларда фуқаролик позициясини шакллантиришнинг долзарб масалалари // Янгиланаётган жамиятда ёшларнинг ижтимоий фаоллиги: муаммо ва ечимлар мавзусидаги республика илмий-амалий конференциясидаги нутқ.Т-2020.-15 б.

<sup>3</sup> Кушербаев Р. Ёшларда фуқаролик позициясини шакллантиришнинг долзарб масалалари // Янгиланаётган жамиятда ёшларнинг ижтимоий фаоллиги: муаммо ва ечимлар мавзусидаги республика илмий-амалий конференциясидаги нутқ.Т-2020.-17 б.

O'rta ta'lif va mehnat bozori o'rtasida o'zaro muvofiqlikning yo'qligi, masalan, tibbiyotchi, o'qituvchida o'rta ma'lumot bo'lsa, uni ishlamasin, degan vazirlilikning talabi mantiqsizlikning davomi bo'lib turibdi.

Oliy ta'lif va mehnat bozori o'rtasida o'zaro muvofiqlikning yo'qligi, ya'ni mehnat bozorida qanday kadrga ehtiyoj bor, nega yirik korxonalardan buyurtma olish prinsipi bo'yicha ishlanmaydi, degan savollarga yechim topilmayapti. Oqibatda ma'lum yo'naliishlarda kadrlar ko'p bo'lsa-da, ish yo'q. Ma'lum kasblar uchun pul topish va jamiyatda alohida ustun mavqega olib kelish imkoniyati yaratib qo'yilgani, shu soha vaillari va idoralarga qonunlarda vakolatlarning kuchaytirib yuborilganligi oqibatida o'zbek yoshlarning orzusi: prokuror, milisiya va boshqa "obro"li kasblarga o'zlarini urish bilan chegaralanib qolmoqda. Masalan, bir muddat ilgari O'zbekistonda Ayollar va bolalar muammolari bilan shug'ullanuvchi tashkilot qishloqda yashovchi 15-16 yashar o'smirlardan kollej va liseylarni bitirganlaridan keyin kim bo'lishlari haqida so'ragan. So'rov mualliflarining aytishlaricha, uchta asosiy javob "tuman prokurori", "tuman milisiyasi boshlig'i" va "tuman sudi raisi" bo'lgan. Bu mansablar hammaga ham yetmasligi mumkin-ku, degan savolga yoshlar darhol "Unda uylanib, oilaviy hayotni boshlaymiz",<sup>4</sup> deb javob berishgan.

Afsuski, shu kunga qadar yoshlarning psixologiya bilan ishlash masalasi birinchi darajali masala sifatida ko'rilmay, ortga surilgani oqibatida turli ruhiy bosim yoki hayotga noto'g'ri qarash bilan jamiyatga kirib kelayotgan yoshlar ko'payib borayotganligi ham fuqarolik pozisiyasini shakllantirishdagi muhim to'siqlardan biri bo'lib turibdi. O'z joniga qasd qilishlar ko'payib borayotgani, ayrim huquqni muhofaza qiluvchi idoralar vakillarining axloq normalaridan chiqib, hatto so'roq vaqtida ayolni yechintirishgacha borgani va boshqa ishlar, avvalo, yoshlarning psixologiyasi bilan ishlash masalasiga yetarli darajada ahamiyat qaratilmaganligi bilan bog'liq. Bu, o'z navbatida, korrupsiya, mahalliychilik va boshqa illatlarning avj olishiga ham sabab bo'luvchi omillar qatorida turibdi.

## XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ayni paytda dunyo iqtisodiyotida innovasion texnologiyalarning ulushi tobora ortib bormoqda. Shu bois, yoshlarning innovasion g'oya va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarni kuchaytirish, avvalo, mazkur yo'naliishdagi qonun hujjatlarini takomillashtirish masalasi qonun ijodkorlari oldiga katta mas'uliyat yuklamoqda. Bunda, ayniqsa, tadqiqot ishlari bilan mashg'ul, yangi zamonaviy loyihalar ustida ishlayotgan izlanuvchan, iqtidorli yoshlarni yanada rag'batlantirish, innovasion texnologiyalarni

<sup>4</sup> Кушербаев Р. Ёшларда фуқаролик позициясини шакллантиришнинг долзарб масалалари // Янгиланаётган жамиятда ёшларнинг ижтимоий фаоллиги: муаммо ва ечимлар мавзусидаги республика илмий-амалий конференциясидаги нутқ. Т-2020.-17-18 б.

iqtisodiyot tarmoqlariga keng jalb etishda ularning salohiyatidan to‘g‘ri va samarali foydalanish, eng muhimi, aholining eng harakatchan, serg‘ayrat qatlami vakillarining imkoniyatini to‘g‘ri baholash masalalarida amaldagi qonun hujjatlarini qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirish ustuvor vazifa deb o‘yayman.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekistonda OTM lar soni 130 taga yetdi // Jamiyat. 13 yanvar 2021.
2. Yangi O‘zbekiston – yangicha dunyoqarash // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yilning 7 fevral kungi Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi asosida mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning huquqiy asoslari. Targ‘ibot-tashviqot axborot materiallari.
3. Kusherbayev R. Yoshlarda fuqarolik pozisiyasini shakllantirishning dolzARB masalalari // Yangilanayotgan jamiyatda yoshlarning ijtimoiy faolligi: muammo va yechimlar mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasidagi nutq.T-2020.-17-18 b.
4. “Olima” ayollar uyushmasi // Joriy arxiv materiallari. 2010. 02.01
- 5.“Olima” 20 yoshda. // O‘zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar “Olima” uyushmasi. – Toshkent, 2012 . – B..2.
6. <https://mininnovation.uz> // XXI asr ilm-fani va ta’lim sohasida ayollar: yutuqlar va muammolar.11 fevral, 2021.